Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to‘plami

Elektron o'quv adabiyotlar yaratishni tahlil qilish va samarali tizimini ishlab chiqish

Andijon mashinasozlik instituti Axborot tizimlari va texnologiyalar yo‘nalishi 3-bosqich 89-21 guruh talabalari Abdug‘afforov Shohsulton Mavlonbek o‘g‘li va Bahromov Fazliddin Lutpiddin o‘g‘li

Annotatsiya. *Elektron o‘quv adabiyotlarni yaratishda ta'lim jarayoni uchun individuallashtirish imkonini beradi, o'quv jarayonini o'z o'zini nazorat qilish va kuzatish imkoniyatini beradi, har xil holatlarda optimal echim qabul qilishga o'rgatadi, ma'lum tipdagi fikr yuritishni rivojlantiradi, bilim olish madaniyatini shakllantiradi. Elektron o‘quv adabiyotlarni qo'llash va yaratish muammolarini o'rganish asosiy hisoblanadi.*

Kalit so‘z. *multimedia, electron adabiyot, elektron darslik, masofaviy*

Topic: Analysis and development of an effective system for creating electronic educational literature

Abstract. *When creating electronic educational literature, it allows for individualization of the educational process, provides an opportunity for self-control and monitoring of the educational process, teaches to adopt optimal solutions in various situations, develops a certain type of thinking. , forms a culture of learning. Studying the problems of using and creating electronic educational literature is the main thing.*

Key word. *multimedia, electronic literature, electronic textbook, remote*

Hozirgi vaqtda ta'limning istiqbolli modellari, yangi axborat texnologiyalardan keng ko'llamda foydalanishga asoslangandir. Bunda ta'limni qo'llab-quvvatlaydigan elektron vositalaridan biri bo'lgan elektron o‘quv adabiyotlar muhim ahamiyatga ega. Elektron o‘quv adabiyotlar ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi, xatolar diagnostikasi va teskari aloqa bilan nazorat qiladi, o'quv jarayonini o'z o'zini nazorat qilish va kuzatish imkoniyatini beradi, har xil holatlarda optimal echim qabul qilishga o'rgatadi, ma'lum tipdagi fikr yuritishni rivojlantiradi, bilim olish madaniyatini shakllantiradi. Elektron o‘quv adabiyotlarni qo'llash va yaratish muammolarini o'rganish asosiy hisoblanadi. Bu sohada ham yagona milliy uslubiy ta'minot va standartlar ishlab chiqilmagan, bu esa o'z navbatida elektron o‘quv adabiyotlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bilamizki hozirgi axborot texnologiyalar asrida elektron o‘quv adabiyotlarni yaratilishi yoshlar nafaqat yoshlar barcha insonlar uchun juda katta ahamiyatga ega hisoblanib kelmoqda. Chunki , ijtimoiy tarmoqlardan bemalol izlagan adabiyotini topish mumkin . O‘tgan asrlarda kitob o‘qish uchun kutubxonalarga borilgan va izlayotgan kitobini olish uchun esa kimdir o‘qib tugallashini kutish uchun navbatga turishar edi. Bu degani qanchadir vaqtini yoqotdi degani . Hozirgi zamonda esa bunday muammolarga duch kelish qiyin . Xattoki pul sariflab kitob ham sotib olmaydi barcha o‘ziga kerakli bo‘lgan adabiyotlarni ijtimoiy tarmoqlardan bemalol yuklab foydalanishi mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda ham masofadan o'qitish uslubiy materiallari ayrim an’analarni o'qitishda foydalanilmoqda va yaxshi natijalar bermoqda. Elektron

Published: 10.11.2023

Cite this article: Abdug‘afforov Shohsulton Mavlonbek o‘g‘li, Bahromov Fazliddin Lutpiddin o‘g‘li (2023). Elektron o'quv adabiyotlar yaratishni tahlil qilish va samarali tizimini ishlab chiqish. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/444

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

kutubxonalar, elektron o'quv qo'llanmalar, onlayn darsliklar rusumga kirmoqda. Multimedia o'quv qo'llanma o'zida ko'pgina ma'lumotlarni mujassamlash bilan birga, bu ma'lumotlarni ekranda namoyish etadi, hamda ovoz yordamida izohlaydi. Multimedia o'quv qo'llanmaning xususiyati, u voqea va ma'lumotlarni yaqqol aks ettiradi. Ya'ni multimedia voqea va ma'lumotlarni hayotiylashtiradi. Bu matn, videotasvir, ovoz va musiqa yordamida amalga oshiriladi.

Respublikada elektron o‘quv adabiyotlaridan foydalanishga mo‘ljallangan axborot texnologiyalari vositalarini rivojlantirish, shuningdek, masofadan turib o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Elektron adabiyotlar yaratishning ilmiy-uslubiy tomonlari ko‘pgina olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. 2006- yildan e'tiboran, elektron o‘quv adabiyotlaridan foydalanishning uchinchi bosqichi boshlanganiga qaramay ta'lim muassasalari uchun elektron o‘quv qo‘llanma yaratish va ularni o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llash bo‘yicha ishlar ancha kamayib ketmoqda. Bu esa, elektron o‘quv qo‘llanma yaratish uslubiyoti, uning tuzilishi, o‘z ichiga oladigan komponentlarining aniq bir tizimga solinmaganligidadir. Elektron o‘quv adabiyotlarining uchinchi ya'ni o‘quv jarayonida keng foydalanish bosqichiga o‘tishda, o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini ishlab chiqish va ta'lim muassasalarini ta'minlashni jadallashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Qayerga bormaylik hoh oliy ta’lim dargohiga hoh maktabga deysizmi barcha sinf xonalarida elektron dosklar mavjud . Zamonaviy ta’lim jarayonida pedogoglarimiz elektron darsliklardan keng foydalinmoqda.

Elektron o‘quv qo‘llanma yaratish muallifning talanti va ustaligiga bog‘liq bo‘lib har qanday murakkab tizimlarni yaratish imkoniyatini beradi. U albatta yaxshi jihozlangan, elementlari tartibli joylashgan bo‘lishi kerak.

Elektron o‘quv qo‘llanma o‘quv materialining to‘liq bo‘lishi ta’lim jarayonida undan foydalanish va qog‘ozdagi o‘quv materialiga murojaat qilmaslikni ta’minlaydi. Matndagi turli iboralar va ta’riflarga jadvallarga, grafiklarga yo‘llovchi gipermatnlar tufayli elektron o‘quv qo‘llanma qog‘oz materiallarga qaraganda o‘quv jarayonida qulay imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga uning ixchamligi va arzonligi ta’lim oluvchining yoki foydalanuvchi e’tiboridan holi bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. Umum ta'lim maktablari uchun elektron darslik yaratishning nazariy asoslari // Pedagogik mahorat-T, 2003, № 2. 6-10 - betlar.9
2. Abduqodirov A.A. Masofali ta'limda ishtirokchi o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalariga talablar // «Yosh istiqbolli ped. va il. kadrlarning kasbiy mahoratini oshirish muammolari» // Resp. ilm. semin. mater-i (2004 yil 27-28 may).-T., 2004. 98 - 101-betlar.
3. Abduqodirov A.A. Akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining malakasini oshirishda masofali o'qitish metodikasi // Uzluksiz ta'lim. - T, 2004. 5-son. 3-12- betlar.
4. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish modellari va ularning sinflari//Fizika, matematika va informatika. - T: 2004.- 5-son..50- 56-betlar.